

KONSTITUTSIYA – YANGI O‘ZBEKISTONNING HUQUQIY POYDEVORI

Qurambayev Sardor

*Urganch davlat tibbiyot instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
+998 94 117 44 22*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.02.2026

Revised: 14.02.2026

Accepted: 15.02.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*O‘zbekiston,
konstitutsiya, qonun,
hujjat, ijtimoiy davlat,
huquqiy davlat,
dunyoviy davlat.*

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgarishlar tahlil qilinib, har bir huquqiy-normativ yangilanishlarning mamlakatimiz istiqboli uchun qanchalar ahamiyatli ekanligi dalillar bilan asoslab berilgan.

Kirish. “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-noyabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishda alohida ta’kidlandi.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e‘tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Bunga qadar 199-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartirish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

1. O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasini quyidagicha o‘zgartirilmoqda:

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Keling, bosh qomusimizning birgina moddasiga kiritilgan o‘zgarishlar hayotimiz uchun nechog‘li ahamiyatli ekanligini ilmiy asoslarda ko‘rib chiqaylik.

Huquqiy davlat – insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g‘oyasi bo‘lib, huquq normalariga, insonning qadr-qimmatini, erkinligi va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan fundamental huquqiy prinsiplariga so‘zsiz rioya qiladigan, demokratik prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir.

Bugun Yangi O‘zbekiston insonparvar, adolatli, erkin va xalqchil bo‘lgan huquqiy davlat qurish yo‘lida odimlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvda “Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini to‘liq ta‘minlash, tom ma‘noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin”, deb ta‘kidlagan edi. Shu maqsadda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida “O‘zbekiston – huquqiy davlat” degan tamoyil mustahkamlandi.

Konstitutsiyada O‘zbekistonni huquqiy davlat ekanligini alohida belgilash – davlat o‘z faoliyatini, jamiyat va fuqarolarning yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonunlar asosidagina amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Pirovardida, davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida xalq manfaatlarini uchun ishlaydi, unga xizmat qiladi. Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Turkiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida o‘zini huquqiy davlat deb belgilagan.

Mazkur yangilik barchaning qonun oldida tengligini va qonundan xech kim ustun emasligini ta'minlash, insonlar ongiga qonunlarga hurmat va itoat etib yashash lozimligini singdirish, umuman olganda davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'ladi. Shuningdek, O'zbekistonning "Huquq ustuvorligi indeksi", "Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi" kabi xalqaro nufuzli reytinglarda o'rini yaxshilanishiga imkon beradi.

Ijtimoiy davlat – har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish, uning shiddat bilan o'zgarayotgan zamonga to'la moslashuvini ta'minlash-muhim masaladir. Ayni paytda xalq bilan muloqot tizimini yanada rivojlantirish, davlat fuqarolik xizmatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, eng munosib va qobiliyatli shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, korrupsiya bilan bog'liq omillarni bartaraf etish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, gender tenglikka intilish kabi muammolar yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarida namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib «milliy tiklanishdan-milliy yuksalish» g'oyasini sobitqadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyalarining qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarining mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umu- minsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur-mamlakatimiz barqaror rivojlanishining mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora o'sishi bois, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa jabhalarda mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda mas'uliyati o'zgardi. Ayniqsa, yosh avlodga e'tibor, yoshlarga shart- sharoitlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har qanday jamiyatning iqboli va istiqboli yosh avlodga bo'lgan e'tiborga bog'liqligi ayyon. Prezidentimiz faoliyati va qarashlarining muhim yo'nalishi ham shunga

qaratilgani bejiz emas. Kelajakning bunyodkori, ertangi kunning hal qiluvchi kuchi-yoshlarga munosabat masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylangani rost. Maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ham ana shu maqsadga yo'naltirilgan. Yoshlar borasidagi siyosat ta'limning uzluksizligigagina emas, balki uzluksiz tarbiyaga ham yo'naltirilganligi muhim ahamiyatlidir.

Birgina misol sifatida Prezident maktablarining, atoqli adiblar nomi bilan atalgan ijod maktablarining ochilishini keltirish mumkin.

Bundan tashqari jajji bolajonlar uchun Yevropa hamda milliy uslubda ta'mirlangan, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil etilayotganligi Uchinchi Renessansning kurtak yoyayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etildi. Yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etilishi, ko'chma kitob pavilyonlari joylashtirilib, «Bibliobus»lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatib borilishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bularning barchasi yosh avlodga bo'lgan g'amxo'rlikdan darak.

Xalqimizda «To'rt muchang sog' bo'lsa, baxting butun bo'ladi» degan maqol bor. Haqiqatan ham agar insonning vujudi va ongi sog'lom bo'lsa turmushida xotirjamlik va mehnatida baraka bo'ladi. Yurtimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Agar oldin murakkab jarrohlik amaliyotlari poytaxtda amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda ushbu amaliyotlar viloyatlarda ham amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish borasidagi ishlarning maxsus dasturlar asosida tizimli amalga oshirilishi kelajak avlodning sog'lom bo'lib voyaga yetishida muhim omil bo'lmoqda. Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, Qudratli yurtning farzandlari esa sog'lom bo'ladi. Bu baxtiyorlikning bir mezonidir.

So'nggi yillarda yurtimizda qad ko'tarayotgan bir-biridan chiroyli va muhtasham binolar, keng va ravon yo'llar ko'zni quvnatadi. Milliy va zamonaviy me'morchilikning eng yuksak talablari asosida qurilayotgan bunday inshootlardan biz qanchalik faxrlanayotgan bo'lsak, xorijlik mehmonlar ularga havas bilan boqayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

E'tiborlisi, qurilish ishlari qishloq joylarida avj olmoqda. Qishloq qiyofasining o'zgarishi insonlarda o'z mamlakatidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirib qolmay, Vatan uchun beminnat xizmat qilish tuyg'usini shakllantiradi. Shuni ishonch bilan aytilish mumkinki, bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z borganda «Yangi O'zbekiston» iborasi tilga olinmoqda. Bu esa keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimizdan, erishayotgan va erishilishi kutilayotgan ulkan yutuqlarimizdan dalolat beradi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari belgilandi, davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko'paydi.

Dunyoviy davlat – diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlat hisoblanadi.

Dunyoviy davlat vijdon va e'tiqod erkinligining mavjudligi, davlatning jamiyat hayotida fuqarolar tomonidan e'tiqod qilinayotgan dinlarga teng va birdek betaraf munosabatda bo'lishi hamda hech qaysi dinning davlat dini sifatida o'rnatilmasligi bilan tavsiflanadi. Dunyoviy davlat fuqarolarga ta'lim olish, shaxsiy rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi, balki insonlarning ma'naviy va ruhiy kamolotga erishishining omili bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, dunyoviylik – dahriylik emasdir, ayni paytda dunyoviy davlat dahriylikka targ'ib etuvchi davlat ekanligini anglatmaydi. Aksincha, dunyoviy davlatda barcha uchun vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi ta'minlanadi, turli din vakillariga teng imkoniyat yaratib beriladi hamda diniy e'tiqodni chuqur hurmat qilgan holda, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan boriladi. Umumiy ma'noda davlat dunyoviy davlatda diniy masalalarda rasman betaraf bo'ladi yoki diniy masalalarga aralashishdan o'zini tiyadi. Dunyoviy davlatning muhim xususiyatlaridan biri – turli din vakillarining bag'rikenglik va tinch-totuvlikda yashashidir. Jamiyatda turli-tuman din va madaniyatlar vakillari mavjud bo'lgan holda, davlat boshqaruvi va siyosati, albatta bir mafkuraga yoki diniy qarashga asoslana olmaydi. Bunday sharoitda har bir davlat uchun eng adolatli va to'g'ri yo'l – dunyoviy davlat yo'lidir.

O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Turli diniy e'tiqodga mansub aholiga ega davlatda e'tiqod erkinligining

kafolatlanishi siyosiy va huquqiy ahamiyat bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu bois, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi huquqiga egaligi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan bo'lib, shaxsning diniy e'tiqodi bo'yicha unga qo'shimcha huquq yoki majburiyatlar yuklanmaydi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi har jihatdan el manfaatlariga xizmat qiladi hamda istiqbolli taraqqiyotimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bosh qomusimizning har bir moddasi biz uchun erkin va mustaqil hayot kafolatidir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:O'zbekiston, 2023.-128 b
2. «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-5544-son.
3. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-4947- son.
4. “Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o'zgarish” . Kun.uz.
5. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respubikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. - Toshkent: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil. - 180 B.
6. .I.Bekov. Konstitutsiyada o'qituvchi maqomi: Uchinchi Renessansning mustahkam zamini. "Yangi O'zbek.iston" gazetasi. №52-son.16-mart 2023-yil.
7. P.Матенов. Новые принципы государственного устройства. «Правда востока». №100 от 24 мая 2023 года.
8. .F.Isayeva. Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi! Nimalar o'zgardi? "Inson va qonun" gazetasi. №19 - son. 16-may 2023-yil.